TURISTIK XIZMAT BOZORINING MOHIYATI, UNING VAZIFALARI VA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	821
Payazov Murod Maqsudovich, Salimova Mumtozbeqim Jahongir qizi, Shahnoza Xudoyberdiyeva Davlatovna	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	825
Absamatov Asqar Ergashovich	
MINTAQAVIY TURIZM SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TAVSIYALAR	830
Raxmatov Adxam Itolmasovich	
YAROQSIZ AVTOMOBIL SHINALARINI QAYTA ISHLASH USULLARI TAHLILI	839
Maxmonov Uktam Ashurovich	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISHI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI PROGNOZLASH METODLARI	845
Bozorova Madina Raxmat qizi	



HUDUDIY TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MEHMON UYLARINING ULUSHINI OSHIRISHNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI.....	850
Dilbar Xasanovna Aslanova, Jasur Farxodovich Fattayev	
АНАЛИЗ РАЗРАБОТКИ ЖЕНСКИХ КОЛЛЕКЦИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СТИЛИСТИЧЕСКИХ И КОНСТРУКТИВНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕТРО-МОДЫ.....	854
Абдурахманова Н., Рахматуллаева У. С.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI OSHIRISHNING ASOSIY MOLIVAVIY YO'NALISHLARINI BOSHQARISH MASALALARI.....	859
Daniyarov Quwatbay Dáwirxanovich, Turdimuratova Gulsanem Asqar qizi	
BUXORO SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABINING MOLIVAVIY-IQTISODIY FAOLIYATI VA BOSHQARUV TIZIMINI TAHLIL ETISH.....	866
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM FOR ENSURING FOOD SECURITY AND ITS STRUCTURAL COMPOSITION.....	871
Mattiyev Sodiqjon Qodirovich	
ISSIQ-QURUQ IQLIM HUDUDLARIDA BINOLARNING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DINAMIK QUYOSHDAN HIMOYALOVCHI TIZIMLARNING ARHITEKTURAVIY-INJENERLIK YECHIMLARI.....	876
Ahmadov Tolibjon Akmalovich	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari tahlili.....	879
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOT VA UNI RAQAMLI NAZORAT SHAROITIDA QISQARTIRISH USULLARI.....	887
Nargiza Muzafarovna Babaeva	
YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARINI BASHORAT QILISHDA MASHINALI O'QITISH ALGORITMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	894
Saytov Kamiljan Begdullaevich, Bekniyazova Nurjamal Danaevna, Xudaynazarova Malika Orinbaevna	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARI ASOSIDA YOG'-MOY SANOATI KORXONALARINI TRANSFORMATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI.....	903
Azlarova Dilnoza Axrorovna	
YASHIL OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	908
Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI: QUYOSH, SHAMOL VA GIDRO ENERGIYANI INVESTITSIYA VA DAROMAD TAHLILI.....	914
Sohibov Azizbek, Karimova Komila	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDA TURISTIK SIG'IMNI ILMIY ASOSDA BOSHQARISH: KO'KALDOSH MADRASASI TAJRIBASI.....	919
Ikromova Shaxinabonu, Qilichov Muhriddin	
DAVLAT XARIDLARIDA TCO-UMUMIY EGALIK QIYMATI ASOSIDA BAHOLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	926
Turabov Sarvar Abdumalikovich	
MAHALLIY BYUDJETLAR MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK VA YER SOLIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK YONDASHUV.....	930
Babayev Shavkat Bayramovich	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ И ГИБРИДНЫЕ ПОДХОДЫ К ПРОЕКТИРОВАНИЮ ВЫСОТНЫХ ГОСТИНИЦ И СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ПУЛЬМОНОЛОГИЧЕСКИХ БОЛЬНИЦ.....	937
Гаффорова Зиёда, Габибова Ирина	
IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	952
Tursinov A.J., N. Bazarbaev, Z. Dauletova, N. Mirzaxanova	
MARKAZIY OSIYODA HUDUDIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA OMILLARI.....	956
Akbarova Kamola Akmaljonovna	



QISHLOQ JOYLARDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASHNING MOLIVAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI	962
Xannarov Kamiljon Karimovich	
SOG'LIQNI SAQLASHDA BOSHQARUV NAZARIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA TRANSFORMATSIYASI	967
Saidov Suhrob Shodmonovich	



SOG'LIQNI SAQLASHDA BOSHQARUV NAZARIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA TRANSFORMATSIYASI

Saidov Suhrob Shodmonovich

Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0006-2734-8981



Annotatsiya: Ushbu maqolada sog'liqni saqlash tizimini boshqarish nazariyasining evolyutsion rivojlanish bosqichlari, asosiy ilmiy maktablar va ularning sog'liqni saqlash sohasiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada boshqaruv tushunchasining transformatsiyasi, boshqaruv funksiyalarining takomillashuvi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlashni boshqarish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning nazariy asoslari yoritilgan. Zamonaviy raqamli boshqaruv modellariga o'tish jarayonidagi muammo va istiqbollar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv evolyutsiyasi, sog'liqni saqlash tizimi, menejment konsepsiyalari, strategik boshqaruv, tashkiliy mexanizmlar, raqamli transformatsiya, davlat-xususiy sheriklik, boshqaruv funksiyalari, markazlashtirish va desentralizatsiya, sifat menejmenti, tibbiy xizmatlar marketingi, elektron sog'liqni saqlash (e-health), O'zbekiston sog'liqni saqlash islohotlari, natijaga asoslangan moliyalashtirish.

Аннотация: В данной статье анализируются этапы эволюционного развития теории управления системой здравоохранения, основные научные школы и их влияние на сферу здравоохранения. Освещаются трансформация понятия управления, совершенствование управленческих функций, а также реформы, осуществляемые в сфере управления здравоохранением Республики Узбекистан, и их теоретические основы. Рассмотрены проблемы и перспективы перехода к современным цифровым моделям управления.

Ключевые слова: эволюция управления, система здравоохранения, концепции менеджмента, стратегическое управление, организационные механизмы, цифровая трансформация, государственно-частное партнерство, управленческие функции, централизация и децентрализация, менеджмент качества, маркетинг медицинских услуг, электронное здравоохранение (e-health), реформы здравоохранения Узбекистана, финансирование, ориентированное на результат.

Abstract: This article analyzes the evolutionary stages in the development of healthcare management theory, the main scientific schools, and their influence on the healthcare sector. The study highlights the transformation of the concept of management, the improvement of management functions, as well as the reforms being implemented in the field of healthcare management in the Republic of Uzbekistan and their theoretical foundations. The problems and prospects of transitioning to modern digital management models are also examined.

Keywords: evolution of management, healthcare system, management concepts, strategic management, organizational mechanisms, digital transformation, public-private partnership, management functions, centralization and decentralization, quality management, healthcare services marketing, electronic healthcare (e-health), healthcare reforms in Uzbekistan, results-based financing.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv faoliyati va uning mexanizmi iqtisodiyot rivojlanishi hamda samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda [1,19]. Shu sababli boshqaruv mexanizmini, ayniqsa uning tashkiliy jihatlarini muntazam takomillashtirib borish zarur [3]. Sog'liqni saqlash tizimi davlatning eng muhim ijtimoiy infratuzilmalaridan biri bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan qo'llanilayotgan boshqaruv modeli va uning evolyutsion rivojlanish darajasiga bog'liq.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi. Xususan, tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dastlabki qadamlar 1998-yil 10-noyabrdagi PF-2107-sonli "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi

to'g'risida"gi Farmonda, keyinchalik 2018-yil 7-dekabrda PF-5590-sonli "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini 2019–2025-yillarda rivojlantirish konsepsiyasi"da boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, rahbarlarning roli va mas'uliyatini oshirish kabi vazifalar belgilangan [9–10]. Ushbu maqolada aynan ana shu transformatsiya jarayonlarini nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilish, shuningdek, boshqaruv evolyutsiyasining asosiy bosqichlarini aniqlash maqsad qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Menejment va boshqaruv tushunchalariga turli mualliflar tomonidan turli davrlarda turlicha talqinlar berilgan. Quyidagi 1-jadvalda ushbu tushunchalarning evolyutsiyasini aks ettiruvchi asosiy ta'riflar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval
Menejment va boshqaruv tushunchalarining evolyutsiyasi¹

Davr	Muallif	Ta'rif (Menejment/Boshqaruv bu –)	Asosiy g'oya
1910-1920	Frederik Teylor [12]	"Nima qilishni bilish va keyin ular buni eng yaxshi va eng arzon usulda bajarishlarini ko'rish san'ati"	Ilmiy tadqiqotga asoslangan mehnat, normallashtirish
1916	Anri Fayol	"Bashorat qilish, rejalashtirish, tashkil etish, buyruq berish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish"	Umumiy boshqaruv funksiyalari
1954	Piter Druker	"Biznesni boshqaradigan va menejmlarni boshqaradigan, ishchilar va ishni boshqaradigan ko'p maqsadli organ"	Maqsadlar bo'yicha boshqaruv (MBO)
1961	Harold Kuntz [6]	"Ishlarni rasmiy ravishda tashkil etilgan guruhlarda odamlar bilan birgalikda bajarish san'ati"	Guruh dinamikasi, inson omili
1968	Jorj Terri [13]	"Rejalashtirish, tashkil etish, harakatga keltirish va nazorat qilish – maqsadlarni aniqlash va ularga erishish jarayoni"	Jarayonli yondashuv
1982	Jeyms Stoner [11]	"Tashkilot a'zolarining sa'y-harakatlarini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish hamda barcha tashkiliy resurslardan foydalanish"	Resurslarni integratsiyalash
2010-hozir	M. Bayzaqov, Y. Allayorov	"Tartibsiz xo'jalikni maxsus yo'naltirilgan va ishlab chiqaruvchi mexanizmga aylantira oladigan faoliyat turi"	Mexanizm va jarayon birligi

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, menejment tushunchasi dastlab texnik va ma'muriy jihatlarni (Teylor, Fayol), keyinchalik insoniy va strategik omillarni (Druker, Kuntz), so'ngra tizimli va jarayonli yondashuvlarni (Stoner, Terri) qamrab olgan. Zamonaviy talqinda esa menejment — bu texnologik jihatlarni ham qamrab oluvchi kengroq tushuncha bo'lib, u nazariya, tamoyillar, shakllar, usullar va tendensiyalarga tayangan holda amaliy masalalarni hal etishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Bizning fikrimizcha, sog'liqni saqlash tizimini boshqarish — bu tizim faoliyatining samaradorligini ta'minlash hamda mavjud sharoit va resurslar doirasida uning barqaror rivojlanishiga yo'naltirilgan maqsadli va izchil jarayondir. Boshqarish — bu murakkab, ijtimoiy-texnik xususiyatlarga ega, ochiq va dinamik tizim bo'lib, mazmunan "ma'muriyat" tushunchasiga yaqin.

Sog'liqni saqlashni boshqarish ilmiy fan va amaliyot sifatida o'tgan asr davomida to'rtta asosiy evolyutsion bosqichni bosib o'tdi.

Bu davr Frederik Teylor (1856–1915) tomonidan asos solingan "ilmiy boshqaruv maktabi" bilan tavsiflanadi. Teylor o'zining "Ilmiy boshqaruv tamoyillari" (1911) asarida mehnatni normallashtirish, vaqt o'lchovi, ishchilarni tanlash va o'qitish, moddiy rag'batlantirish kabi g'oyalarni ilgari surdi. Sog'liqni saqlash sohasida bu g'oyalar kasalxonalarda ish jarayonlarini standartlashtirish, hamshiralik xizmatini tashkil etish, davolash protokollarini ishlab chiqish orqali namoyon bo'ldi.

Bu davrda sog'liqni saqlash muassasalarida asosan byurokratik boshqaruv modeli hukmron edi. Kasalxonalar qattiq iyerarxik tuzilma, markazlashtirilgan qaror qabul qilish va ma'muriy tartib-qoidalarning

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



ustunligi bilan ajralib turardi. Shu bilan birga, ushbu bosqichda sog'liqni saqlash tizimining davlat tomonidan tartibga solinishi kuchaydi, birinchi davlat sog'liqni saqlash xizmatlari shakllana boshladi.

Bu bosqich Anri Fayol (1841–1925) va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan ma'muriy maktab ta'siri ostida rivojlandi. Fayol o'zining "Industrial va umumiy boshqaruv" (1916) asarida 14 ta boshqaruv tamoyilini va 6 ta asosiy boshqaruv funksiyasini (bashorat qilish, rejalashtirish, tashkil etish, buyruq berish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish) taklif qildi.

Sog'liqni saqlashda ushbu bosqich quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- Boshqaruv funksiyalarining aniq belgilanishi va ular bo'yicha ixtisoslashuv;
- Sog'liqni saqlash organlarining vertikal iyerarxiyasi shakllanishi;
- Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirishning kengayishi;
- Profilaktik yo'nalishning kuchayishi (sanitariya-epidemiologiya xizmati);
- Tibbiy kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishi.

Aynan shu davrda sobiq Ittifoq davrida, jumladan, O'zbekistonda ham sog'liqni saqlash tizimining asoslari shakllantirildi: qishloq vrachlik punktlari, markaziy tuman kasalxonalari, dispanserlar tarmog'i qurildi.

Ushbu bosqich dunyo miqyosida bozor islohotlarining kuchayishi va davlat sektorida "yangi boshqaruv" (New Public Management) konsepsiyasining tarqalishi bilan bog'liq. Piter Druker (1909–2005) tomonidan ilgari surilgan "maqsadlar bo'yicha boshqaruv" (MBO) va "natijalarga asoslangan boshqaruv" g'oyalari sog'liqni saqlash sohasiga joriy etila boshlandi [2].

Bu bosqichda quyidagi o'zgarishlar ro'y berdi:

- Sog'liqni saqlashni moliyalashtirishning aralash modellari (davlat byudjeti + majburiy tibbiy sug'urta + ixtiyoriy sug'urta) joriy etilishi;
- Tibbiy xizmatlar marketingi va raqobat muhitining shakllanishi;
- Strategik rejalashtirish va prognozlash usullarining qo'llanishi;
- Tibbiy yordam sifatini boshqarish (TQM, ISO standartlari) bo'yicha yondashuvlar.

Tahlil va natijalar.

O'zbekiston Respublikasida 1998-yilda qabul qilingan "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi" aynan shu bosqichga to'g'ri keladi. Dasturda quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilangan:

Milliy sog'liqni saqlash modelini bosqichma-bosqich joriy etish;

Aholini ijtimoiy himoya qilish talablariga qat'iy amal qilgan holda davlat muassasalarini aralash va xususiy moliyalashtirish manbalariga o'tkazish;

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirish;

Oilaviy vrachlik institutini joriy etish.

Hozirgi bosqich axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining sog'liqni saqlash boshqaruviga keng kirib kelishi, tizimli yondashuv va butun tizimni qamrab oluvchi boshqaruv modellarining shakllanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichning asosiy xususiyatlari:

- Elektron sog'liqni saqlash (e-health) tizimlarini joriy etish: elektron kasallik tarixi, telemeditsina, masofaviy konsultatsiyalar;
- Klinik yo'llanmalar va standartlar asosida davolash jarayonlarini boshqarish;
- Natijalarga asoslangan moliyalashtirish (pay for performance) modellarini qo'llash;
- Davlat-xususiy sheriklik asosida tibbiy infratuzilmani rivojlantirish;
- Sog'liqni saqlashning "uch pog'onali" tizimi (birlamchi, ikkilamchi, uchinchi darajali yordam)ni optimallashtirish.

O'zbekistonda 2018-yilda qabul qilingan "Sog'liqni saqlash tizimini 2019–2025-yillarda rivojlantirish konsepsiyasi" (PF-5590-son) aynan shu zamonaviy bosqichga mos keladi. Konsepsiyada quyidagi vazifalar belgilangan:

Sog'liqni saqlash sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, tashkil etish va boshqarish tizimini soddalashtirish;

Sog'liqni saqlashni moliyalashtirish tizimini soddalashtirish;

Onalar va bolalar tibbiy yordam tizimini mustahkamlash;

Xususiy sog'liqni saqlash tizimida davlat-xususiy sheriklikni va tibbiy turizmni rivojlantirish;

Tibbiy xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Boshqaruv funksiyalari tushunchasi ham evolyutsion rivojlandi. Quyidagi 2-jadvalda sog'liqni saqlash sohasidagi turli mualliflar tomonidan taklif qilingan boshqaruv funksiyalarining qiyosiy tahlili keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

 Boshqaruv funksiyalarining evolyutsiyasi (turli mualliflar bo'yicha)²

Muallif	Funksiyalar soni	Funksiyalar ro'yxati
Anri Fayol [4]	6	Bashorat qilish, rejalashtirish, tashkil etish, buyruq berish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish
Yu.P. Lisitsyn [7]	8	Tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash, tashkil etish, muvofiqlashtirish, tartibga solish, monitoring qilish, natijalarni baholash
I.B. Tuayeva va b. [14]	5	Bashorat qilish va rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va tartibga solish, faollashtirish va rag'batlantirish, nazorat
B.N. Gerasimov [5]	9	Standartlashtirish, prognozlash, rejalashtirish, tashkil etish, buxgalteriya hisobi, nazorat, tahlil, tartibga solish, muvofiqlashtirish
D.B. Elmurodova [3]	9	Tashkil etish, standartlashtirish, litsenziyalash, muvofiqlashtirish, motivatsiya, marketing, nazorat, rejalashtirish, prognozlash

Jadvaldan ko'rinadiki, dastlabki funksiyalar (Fayol) asosan ma'muriy va buyruqbozlik xususiyatiga ega bo'lsa, keyingi bosqichlarda funksiyalar soni ortib, ularning mazmuni boyigan [4]. Xususan:

- 1960–1980-yillarda — tahlil qilish, prognozlash, natijalarni baholash funksiyalari qo'shilgan;
- 1990–2010-yillarda — standartlashtirish, litsenziyalash, marketing, motivatsiya kabi bozor mexanizmlariga mos funksiyalar paydo bo'lgan;
- so'nggi yillarda — raqamli transformatsiya, risklarni boshqarish, sifat menejmenti kabi zamonaviy funksiyalar qo'shilmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimi boshqa tarmoqlarga nisbatan bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Medik va Yuryev quyidagi asosiy xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi [8]:

- Odamlar hayoti va sog'lig'iga ta'sir qiluvchi qarorlar uchun maxsus mas'uliyat;
- Qarorlarning uzoq muddatli oqibatlarini oldindan aytib berishning qiyinligi;
- Noto'g'ri qarorlarni tuzatishning murakkabligi.

O'zbekiston va dunyo mamlakatlari tajribasiga tayangan holda, sog'liqni saqlash muassasalarini boshqarishning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin (3-jadval).

3-jadval

Sog'liqni saqlashni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari va ularning evolyutsiyasi

№	Xususiyat	XX asr (an'anaviy model)	XXI asr (zamonaviy model)
1	Tashkiliy tuzilma	Markazlashgan, qat'iy iyerarxik, vertikal bo'ysunish	Dekentralizatsiyalashgan, tarmoqli (matritsali), gorizontal aloqalar kuchli
2	Tartibga solish	Qat'iy davlat nazorati, ruxsat berish tizimi	Litsenziyalash, akkreditatsiya, standartlashtirish, o'z-o'zini tartibga solish elementlari
3	Muvofiqlashtirish	Qo'lda (og'zaki va hujjatli)	Raqamli platformalar, integratsiyalashgan axborot tizimlari, elektron hujjat aylanishi
4	Hamkorlik	Asosan davlat ichidagi tuzilmalar o'rtasida	Davlat-xususiy sheriklik, notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, xalqaro donorlar
5	Resurslarni boshqarish	Byudjet asosida markaziy taqsimot	Natijaga asoslangan moliyalashtirish, budjetlashtirishning dastur-maqсадli usullari, investitsiyalar
6	Sifat nazorati	Jazo choralarini asosida (tekshiruv, ko'rik, jazo)	Ichki va tashqi audit, standartlar asosida sifatni boshqarish (TQM, ISO), sertifikatlash
7	Texnologiyalar	Qog'ozda yuritish, statistik hisobot	Telemeditsina, elektron ambulator karta, sun'iy intellekt, big data
8	Inson omili	Qat'iy mehnat intizomi, ma'muriy buyruqbozlik	Motivatsiya, intellektual kapitalni rivojlantirish, jamoa bo'lib ishlash, malaka oshirish tizimi



XULOSA VA TAKLIFLAR.

Maqolada zamonaviy boshqaruv konsepsiyalarining sog'liqni saqlash muassasalarida qo'llanilishi qiyosiy tahlil qilinib, boshqaruv nazariyasining evolyutsiyasi to'rt bosqichda (ilmiy boshqaruv, klassik ma'muriy boshqaruv, strategik va marketing yondashuv, raqamli va integratsiyalashgan boshqaruv) bosib o'tilganligi, bu jarayonda boshqaruv funksiyalarining dastlabki 6 tadan hozirgi 9–10 tagacha ko'payganligi, shuningdek, tashkiliy mexanizmlarning qat'iy markazlashgan vertikal tuzilmadan dezentralizatsiyalashgan, tarmoqli va gorizontaal aloqalari kuchli modelga transformatsiyalashganligi aniqlandi. O'zbekiston misolida 1998 va 2018-yillardagi strategik hujjatlar global tendensiyalar bilan uyg'unlashgan holda boshqaruv tizimini soddalashtirish, moliyalashtirishni takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va raqamlashtirish yo'nalishidagi islohotlarni o'z ichiga olganligi ko'rsatildi. Sog'liqni saqlash boshqaruvining o'ziga xos jihatlari — qarorlarning yuksak mas'uliyati, oqibatlarini oldindan aytilishning qiyinligi va xatolarni tuzatishning murakkabligi — zamonaviy modelda standartlashtirish, litsenziyalash, monitoring va sifat menejmenti orqali qisman bartaraf etilmoqda [16,17,18]. Kelgusida esa profilaktika, shaxsiylashtirilgan tibbiyot, sun'iy intellekt va telemeditsinaning keng joriy etilishi hamda natijaga asoslangan moliyalashtirish modellarining takomillashuvi kutilmoqda. Shunday qilib, ilg'or boshqaruv konsepsiyalarini sog'liqni saqlash muassasalariga tatbiq etish ularning samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bayzaqov, M., & Allayorov, Y. (2015). *Boshqaruv asoslari*. Toshkent: Iqtisod-moliya.
2. Drucker, P. F. (1954). *The Practice of Management*. New York: Harper & Row.
3. Elmurodova, D. B. (2019). *Sog'liqni saqlash sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari* (PhD dissertatsiyasi). Toshkent.
4. Fayol, H. (1916). *Administration Industrielle et Générale*. Paris: Dunod.
5. Gerasimov, B. N. (2017). *Modelirovanie sistemy upravleniya uchrezhdeniyami zdravoohraneniya* (Avtoreferat). Samara.
6. Koontz, H. (1961). "The Management Theory Jungle" // *Journal of the Academy of Management*, 4(3), 174–188.
7. Lisitsyn, Yu. P. (2010). *Obshchestvennoe zdorov'e i zdravoohranenie* (2-e izd.). Moskva: GEOTAR-Media.
8. Medik, V. A., & Yuryev, V. K. (2012). *Obshchestvennoe zdorov'e i zdravoohranenie*. Moskva: GEOTAR-Media.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida" Toshkent. PF-2107-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-221286>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5590-son Farmoni. <https://lex.uz/acts/-4096197>
11. Stoner, J. A. F. (1982). *Management* (2nd ed.). Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
12. Taylor, F. W. (1911). *The Principles of Scientific Management*. New York: Harper & Brothers.
13. Terry, G. R. (1968). *Principles of Management* (6th ed.). Homewood, IL: Richard D. Irwin.
14. Tuaeve, I. B., Gabaraeva, L. N., & Magaev, K. A. (2018). *Menedzhment v zdravoohranenii*. Vladikavkaz: SOGU.
15. World Health Organization. (2000). *The World Health Report 2000: Health systems: improving performance*. Geneva: WHO.
16. Abdullayev, J. (2025). *O'zbekistonda tibbiy ta'lim eksportining rivojlanish tendensiyalari*. Green Economy and Development, 3(3). <https://doi.org/10.5281/zenodo.15161877>
17. Abdullayev, Javoxir. "Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati" // *Green Economy and Development*, vol. 3, no. 4, 7 Apr. 2025. doi:10.5281/zenodo.15400804.
18. Abdullayev J.J. *Oliy ta'lim muassasasida tahsil oluvchi xorijiy talabalarning oliy tibbiy ta'limdan qoniqish indeksiga ta'sir etuvchi omillar tahlili* // "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. 2024-yil, 6-son (20). ISSN 2181-2551, E-ISSN 2181-256X. 149 b. (124–133). <https://interjournal.uz/index.php/journals/article/view/319>
19. Abdullayev, J. (2023). *Theoretical foundations of value chain formation*. Talqin va Tadqiqotlar, 1(21). <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1415>

muhandislik **& iqtisodiyot**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. May. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100